



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIVAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN.....	93
Axliddin Aroptdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	



KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0008-5362-873

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda investitsion faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari kompleks yoritiladi hamda investitsiya qarorlarini qabul qilish va boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tizimlashtiriladi. Tadqiqotda investitsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyati, investitsiya jarayonining bosqichlari, investitsiya siyosati va strategiyasini shakllantirish tamoyillari, shuningdek, investitsiya resurslarini jalb etish va taqsimlash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Maqolada investitsiya loyihalarini baholash mezonlari (NPV, IRR, PI, DPP), kapital qiymati (WACC), risk–daromad muvozanati, portfel yondashuvi va qiymatga yo'naltirilgan boshqaruv konsepsiyasining korxona investitsion faolligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, soliq-kredit siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi, huquqiy kafolatlar, korporativ boshqaruv va axborot shaffofligi kabi institutsional omillarning investitsiya muhitiga ta'siri bayon etiladi.

Tadqiqot natijalari investitsiyalarni rejalashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish va loyiha monitoringini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya siyosati, investitsiya strategiyasi, NPV, IRR, WACC, risk-menejment, portfel, kapital bozori, institutsional muhit, korxona qiymati.

Abstract. This article comprehensively highlights the scientific and theoretical foundations for developing investment activity in enterprises and systematizes modern approaches to making and managing investment decisions. The study substantiates the economic essence of the concept of investment, the stages of the investment process, the principles of forming investment policy and strategy, as well as the mechanisms for attracting and allocating investment resources. The article analyzes the influence of investment project appraisal criteria (NPV, IRR, PI, DPP), the cost of capital (WACC), the risk–return balance, the portfolio approach, and value-based management concepts on an enterprise's investment activity. In addition, it describes the impact of institutional factors—tax and credit policy, government support, legal guarantees, corporate governance, and information transparency—on the investment environment. The research results can serve as a basis for developing scientific and practical recommendations aimed at improving investment planning, diversifying financing sources, managing risks, and enhancing project monitoring.

Key words: investment, investment activity, investment policy, investment strategy, NPV, IRR, WACC, risk management, portfolio, capital market, institutional environment, enterprise value.

Аннотация. В статье комплексно освещаются научно-теоретические основы развития инвестиционной деятельности на предприятиях, а также систематизируются современные подходы к принятию и управлению инвестиционными решениями. В исследовании научно обосновываются экономическая сущность понятия инвестиций, этапы инвестиционного процесса, принципы формирования инвестиционной политики и стратегии, а также механизмы привлечения и распределения инвестиционных ресурсов. В статье анализируется влияние критериев оценки инвестиционных проектов (NPV, IRR, PI, DPP), стоимости капитала (WACC), баланса «риск–доходность», портфельного подхода и концепции управления, ориентированного на стоимость, на инвестиционную активность предприятия. Вместе с тем раскрывается воздействие институциональных факторов — налогово-кредитной политики, государственной поддержки, правовых гарантий, корпоративного управления и прозрачности информации — на инвестиционную среду. Результаты исследования могут быть использованы при разработке научно-практических предложений по совершенствованию планирования инвестиций, диверсификации источников финансирования, управлению рисками и мониторингу проектов.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционная политика, инвестиционная стратегия, NPV, IRR, WACC, риск-менеджмент, портфель, рынок капитала, институциональная среда, стоимость предприятия.



KIRISH

Korxonalarining barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi globallashuv, innovatsion texnologiyalarning tezkor tarqalishi hamda bozor konyunkturasi o'zgaruvchanligi sharoitida, avvalo, investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va uni strategik boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi davrda korxona faoliyatida kapital qo'yilmalarning naqadar maqsadga muvofiq yo'naltirilgani, resurslar qanday tanlangani va investitsiya qarorlari qay darajada ilmiy asoslangani uning moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish salohiyati va bozordagi pozitsiyasini belgilab bermoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, "yashil" texnologiyalar va ESG tamoyillarining keng qo'llanilishi, ta'minot-logistika zanjirlarining qayta konfiguratsiyasi, shuningdek, kapital bozorlaridagi xavf va imkoniyatlar muvozanatining o'zgarishi investitsiyalarni rejalashtirish va amalga oshirishga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitda investitsion faoliyat korxonaning faqatgina kengayish vositasi emas, balki uning innovatsion transformatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda risklarni pasaytirishga xizmat qiladigan kompleks boshqaruv tizimiga aylanmoqda.

Ayniqsa, resurslar cheklangan muhitda investitsiyalarni yo'naltirishda to'g'ri ustuvorlikni belgilash, kapital qo'yilmalarning qaysi yo'nalishda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishini asoslash, daromadlilik va risk o'rtasida optimal muvozanatni topish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, korxonalar investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bir manbaga tayanish bilan cheklanib qolmasdan, o'z mablag'lari, bank kreditlari, obligatsion mablag'lar, lizing, ventur kapital, davlat qo'llab-quvvatlovi, xalqaro moliya institutlari resurslari kabi turli moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. Bu esa investitsion faoliyatning iqtisodiy samarasini oshirish barobarida, likvidlik va qarz yukini boshqarish, kapital qiymatini pasaytirish, korporativ qiymatni oshirishga xizmat qiladi.

Investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari investitsiya tushunchasining mohiyati va shakllarini, investitsiya jarayonining bosqichlari (loyiha tashabbusi, texnik-iqtisodiy asoslash, moliyalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholash), investitsiya siyosati va strategiyasini shakllantirish tamoyillarini, shuningdek, investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmlarini qamrab oladi. Mazkur nazariy baza investitsion qarorlar qabul qilishda korxonaning maqsadlari, bozor muhiti, tarmoq xususiyatlari va risk profilini hisobga olgan holda ratsional tanlov qilish imkonini beradi. Xususan, kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholashda NPV, IRR, PI, DPP kabi moliyaviy mezonlar loyihaning pul oqimlari, diskonlash me'yori va kapital qiymati bilan uzviy bog'liq bo'lib, investitsiya qarorlarining obyektivligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, risklarni identifikatsiya qilish, baholash va boshqarish (ssenariy tahlili, sezgirlik tahlili, riskka mos diskont stavkasini qo'llash, xedjlash va diversifikatsiya) investitsion faoliyatni boshqarishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu ma'noda, Prezident Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Yangi texnologik bosqichga o'tish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha sanoatni rivojlantirish dasturini boshlaymiz. Bunda kelgusi besh yilda sanoatda qo'shilgan qiymatni hozirgi 36,5 milliard dollardan kamida 60 milliard dollarga yetkazishni (o'sish 1,6 barobar); yuqori va o'rtadan yuqori texnologiyali tarmoqlardagi mahsulotlar hajmini 2,5 barobar oshirishni marra sifatida belgilaymiz. Bunga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida 2026-yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi" [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E.D. Dolan va D.S. Lindseylar investitsiya mohiyatini mikroiqtisodiy nuqtayi nazardan talqin qilib, ular investitsiyaning mazmunini "shakllanayotgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifining yuksalishida deb biladilar" [2].

A. Smit o'z ilmiy ishlarida asosiy kapitalning mazmunini o'rganib, uning elementlariga tavsif berar ekan, u: "Jamiyatning barcha bilimlari va foydali a'zolari kapitalning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi" [3], deb ta'kidlaydi.

U.F. Sharp o'zining "Investitsiya" darsligida: "Investitsiyalar kelgusida boylik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan boylikdan voz kechishdir", deb ta'riflaydi. U.F. Sharp "investitsiyalash"ni "real yoki moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin" [4], deb hisoblaydi.

Rossiyalik iqtisodchi olim Ye.V. Mixaylova investitsiya tushunchasini: "Investitsiyalar kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi" [5], deb ta'riflagan.

Rossiyalik olim A.M. Margolin "Investitsiyalar" darsligida: "Investitsiyalar pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko'zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir" [6], deb ta'riflaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. G'ozibekov va T. Qoraliyevlar: "Investitsiyalar – daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar" [7], deb ta'riflaydilar.



Professor N. Haydarov “investitsiyalar”ga quyidagicha ta’rif bergan: “Investitsiya mulk shaklidan qat’i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko’rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o’z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo’lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir” [8].

Professor Sh. Shodmonov o’zining “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beradi: “Investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va kuchaytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko’rinishidir. U pul mablag’lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog’ozlar ko’rinishida amalga oshiriladi” [9]. Bu ta’rif ham ancha ilmiy asoslangan bo’lib, investitsiya jarayonlarini amalga oshirish mohiyatini ochishga qaratilgan.

Iqtisodchi olimlardan D. Tojiboyeva fikricha: “Investitsiya deganda, kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta’mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo’ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi” [10].

B. Abdurkarimov, A. Jabriyev, M. Pardayevlarning fikricha, investitsiyalar moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag’ qo’yishdir. U pul mablag’lari, kredit, qimmatli qog’oz shaklida olib boriladi va ko’chma, ko’chmas mulk, intellektual mulk, ne’matlarga bo’lgan huquq va boshqa boyliklarga qo’yiladi, ya’ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi [11].

Shuningdek, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonunida: “Investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo’lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo’lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar” [12], deb ta’riflangan.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, “investitsiya” atamasi juda keng tushunchaga ega ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish lozim deb hisoblaymiz: “Investitsiyalar kelajakda foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida, investor tomonidan qishloq xo’jaligi tarmoqlarini rivojlantirish uchun ma’lum muddatda sarflangan barcha turdagi moddiy-texnik va intellektual boyliklardir”.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda investitsiyaning mohiyatiga quyidagicha ta’rif keltirish mumkin: “Investitsiyalar uzoq muddatli va kapital qo’yilmalarni xavf-xatarga qo’yib (tavakkal qilib), tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga takror ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida va buning natijasida foyda olish yoki resurslar potensialining cheklangan sharoitida kelajakda boshqa foydali samaraga erishish maqsadidagi iqtisodiy kategoriyadir”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma’lumotlar yuzasidan tahlillar amalga oshirildi va ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bosqichda investitsiyalarni qo’llashning asosiy sohalaridan biri innovatsiyalar sohasi bo’lib, bu ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi hamda tashqi va ichki bozorda raqobatning yuqori darajasiga iqtisodiy bog’liqdir.

Bu o’rinda shuni ta’kidlash joizki, milliy iqtisodiyot chetdan qo’yilma sifatida chet el kapitalining uning turli shakllarida qabul qilinishi mumkin. Bunda faqat yangi loyihalarga yo’naltirilgan bevosita xorijiy investitsiyalargina qabul qiluvchi mamlakatning kapitali umumiy fondini ko’paytiradi, ishlab chiqarish investitsiyalarining o’sishini ta’minlab, iqtisodiy vazifalar sifatida yangi ish o’rinlarini barpo etadi.

Shu bilan birga, mamlakatning investitsiya faolligini oshirish bevosita investitsiyalashning fundamental tamoyili hisoblanib, aniq maqsadlarga erishish uchun investitsiya kiritish, maqsadlarni murosaga keltirish, muvofiqlashtirish, jalb etilgan investitsiyalarning joriy qiymatini saqlash, loyihani samarali amalga oshirishni boshqarish tadbirlarini qo’llash orqali investitsion imtiyozlarning – fiskal, moliyaviy va boshqa shakllari hajmini ko’paytirishdan iborat.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko’ra, davlat investitsiyalaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida davlat maqsadli dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim:

- davlat majburiyatlarini optimallashtirish, davlat investitsiyalarining ustuvor yo’nalishlariga mos kelmaydigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan voz kechish;
- davlatning investitsion majburiyatlari balansini uning investitsion va moliyaviy imkoniyatlari bilan ta’minlash;



- mamlakatda hokimiyat darajalari o'rtasida vakolatlar bo'linishiga muvofiq davlat budjetining investitsiya majburiyatlarini rejalashtirish, qurilishi va modernizatsiyalanishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hamda hukumat vazifalarining tarkibiy qismi bo'lgan obyektlarni davlat maqsadli dasturlariga kiritish;
- davlat budjeti investitsiya xarajatlarning imkon qadar ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, birinchi navbatda davlat maqsadli dasturlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarning ochiqligi, oshkoraligi va maqsadlilik;
- boshqa investorlar tomonidan ularni birgalikda moliyalashtirish shartlarida loyihalarni belgilangan hajmlarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- dasturlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun davlat buyurtmachilari va tegishli mansabdor shaxslarning javobgarligini joriy etish;
- davlat maqsadli investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning asosiy tartib-qoidalarini qonunchilikda mustahkamlash.

Mamlakatda investitsiya faolligini oshirishni tartibga solish masalalari quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- kredit va soliq imtiyozlari orqali tarmoqlar, sohalar va alohida xo'jaliklarni kapital mablag'lar bilan ta'minlashni rag'batlantirish;
- ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga tushirish uchun investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va hokazo.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida bir qator investitsiya faolligiga doir o'zgarishlar sodir bo'ldi, xususan:

- import bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rnini qoplaydigan mahsulotlar yaratildi;
- tayyor mahsulotlar eksporti oshdi;
- mamlakatda yangi ish o'rinlari ochildi hamda yangi texnologiyalar joriy etildi;
- investitsion faollikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi hamda joriy etildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga ustuvorlik berilishi samarali mexanizmlarning bosqichma-bosqich joriy qilinishi natijasida investitsiya faolligini, ularning manfaatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish muammolarini hal qilish uchun tarmoqda investitsiya faolligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy hamda ilmiy-uslubiy modellarini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu model variantlarining eng maqbul yo'nalishlaridan hisoblangan investitsiya loyihalar va dasturlari amaliyotda sinab ko'rib, keyin joriy qilinmoqda. Lekin bu modellar xo'jaliklar doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning faoliyat yuritishi uchun investitsiya faolligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan dasturlar, amaliy tavsiyalar talab darajasida ishlab chiqilmagan.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tahlil etish va faolligini oshirish bevosita amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Hududlarda investitsiya faolligini oshirish uchun erkin iqtisodiy munosabatlar prinsiplari asosida faoliyat yuritayotgan mamlakatlar hamda respublikada shu sohadagi ilg'or tajribalardan kelib chiqib, quyidagi to'rt guruh yo'nalishlarida chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

Mamlakat investitsiya faolligini shakllantirish tizimini tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- investitsiyalashning moliyaviy mablag'lari va manbalarini aniqlash hamda ularni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar va imtiyozlar yaratish;
- samarali investitsiyalashni ta'minlovchi bozor subyektlarini shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- real investitsiya talabiga mos resurslarni jalb etishni ta'minlovchi makroiqtisodiy muhitni shakllantirish;
- davlat tomonidan investitsiya jarayoni subyektlarini rag'batlantirish.

Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faolligini barqaror rivojlantirish tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yuqori unumli, zamonaviy asosiy vositalar sotib olish, qayta ta'mirlash, qurish uchun uzoq muddatli hamda aylanma mablag'larga sarf qilinadigan qisqa muddatli investitsiyalarni jalb etish sur'atlari va ularning miqdoriga bog'liqdir.

Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faolligini oshirishda uzoq va qisqa muddatga jalb etiladigan investitsiyalar nisbati va miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Chunki tarmoqning investitsiya jozibadorligi pastligi asosiy vositalarga investitsiyalar jalb etishga to'liq imkoniyat bermaydi.

Mamlakat iqtisodiyotini ustuvor rivojlantirishga erishish uchun uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, samarali agrotexnologiya va intellektual mulkni barpo etishga investitsiyalarni yetarli darajada jalb etish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida zarur jarayon hisoblanadi.

Investitsiyalar investorlar tomonidan o'z maqsadlariga erishish uchun tegishli faoliyat turiga kiritiladigan va pulda ifodalangan har qanday fuqarolik huquqlari obyektidir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda investitsion faoliyatni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va korxona qiymatini oshirishni ta'minlovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Globallashuv, texnologik transformatsiya, raqamli iqtisodiyot va "yashil" rivojlanish talablari sharoitida investitsiyalar korxona uchun faqat ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish vositasi bo'lib qolmay, balki innovatsiyalarni joriy etish, resurs samaradorligini oshirish, mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish standartlarini yangilash, bozordagi pozitsiyani mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik boshqaruv mexanizmiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, investitsion qarorlar qabul qilishda ilmiy-nazariy yondashuvlar — kapital qo'yilmalarni oqilona taqsimlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash (NPV, IRR, PI, DPP), kapital qiymatini hisoblash va optimallashtirish (WACC), risk–daromad muvozanatini ta'minlash hamda qiymatga yo'naltirilgan boshqaruv (value-based management) tamoyillari asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunda investitsiya jarayonini "loyihani tanlash – moliyalashtirish – amalga oshirish – monitoring – natijani baholash" zanjirida kompleks boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligi va natijadorligini oshirishga olib keladi.

Shu bilan birga, investitsion faoliyatning rivojlanishi faqat korxonaning ichki imkoniyatlari bilan cheklanib qolmay, tashqi institutsional muhit va bozor mexanizmlari bilan ham uzviy bog'liq ekanini aniqlanadi. Soliq va kredit siyosati, davlat qo'llab-quvvatlovi (subsidiya, kafolat, imtiyozlar), investorlar huquqiy himoyasi, korporativ boshqaruv sifati, axborotning shaffofligi hamda kapital bozorlarining rivojlanganlik darajasi korxonalarning investitsion faolligi va investitsiya risklari profilini belgilaydi. Bunday sharoitda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish (ichki mablag'lar, bank kreditlari, obligatsiyalar, lizing, xalqaro moliya institutlari resurslari) kapital qiymatini pasaytirish, likvidlikni mustahkamlash va risklarni kamaytirish imkonini beradi. Demak, korxonalarda investitsion faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari samaradorlikni baholash mezonlari, risk-menejment, portfel yondashuvi, institutsional rag'batlar va raqamli monitoring vositalari uyg'unligida ko'rib chiqilganda, investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligi hamda korxona barqarorligiga ta'siri sezilarli ravishda oshishi ta'minlanadi.

Korxonalarda investitsion faoliyatni rivojlantirish uchun, avvalo, investitsiya siyosatini strategik boshqaruv tizimi bilan to'liq uyg'unlashtirish va uni aniq o'lchanadigan maqsadli indikatorlar asosida yuritish taklif etiladi. Bunda investitsiya dasturlari korxona qiymatini oshirish, raqobatbardosh mahsulot/xizmat ulushini kengaytirish, resurs tejamkorlik va texnologik yangilanish kabi ustuvor yo'nalishlarga bog'lanib, KPllar orqali (NPV, IRR, EBITDA marjasi, tannarx pasayishi, energiya samaradorligi, eksport hajmi) baholanishi lozim. Investitsiya loyihalarini tanlashda yagona standart metodika joriy qilinib, har bir loyiha uchun diskont stavkasi (WACC)ni asoslash, pul oqimlarini ssenariylar bo'yicha hisoblash, sezgirlik va stress-test tahlili, risk reestri hamda "after-project review" kabi talablar majburiy tartibda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, investitsiyalar portfelini boshqarishni kuchaytirish uchun Investitsiya qo'mitasi yoki PMO (Project Management Office) tashkil etilib, loyihalarining budjet–muddat–sifat parametrlari bo'yicha mas'uliyat va hisobdorlik mexanizmi aniq belgilab qo'yilishi kerak.

Ikkinchidan, investitsion faoliyatni amaliy jihatdan samarali tashkil etish uchun korxonada investitsiya jarayonini to'liq qamrab oladigan boshqaruv infratuzilmasini kuchaytirish taklif etiladi. Jumladan, loyihalarni rejalashtirish va ijrosini nazorat qilishda "loyiha sikli" bo'yicha yagona reglament (tashabbus – asoslash – moliyalashtirish – ijro – monitoring – yakuniy baholash) joriy qilinib, har bir bosqichda mas'ul bo'linmalar, qaror qabul qilish mezonlari va hisobot shakllari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Investitsiya qarorlarida axborot assimetriyasini kamaytirish maqsadida moliyaviy hisobotning shaffofligi oshirilib, loyihalar bo'yicha alohida budjetlashtirish, xarajatlar limiti, tender/xarid tartib-taomillari va kontrakt menejmenti standartlari kuchaytirilsin. Shu bilan birga, investitsion loyihalar natijadorligini muntazam baholash ("post-audit") amaliyoti yo'lga qo'yilib, rejalashtirilgan va haqiqiy natijalar o'rtasidagi farqlar sabablari tahlil qilinishi hamda bu xulosalar keyingi loyihalar uchun metodik baza sifatida foydalanilishi kerak. Investitsiya boshqaruvini raqamlashtirish (ERP/BI, loyiha monitoringi dashbordlari, elektron hujjat aylanmasi) esa ijro intizomini oshirish, muddat kechikishi va xarajatlar ortib ketishini barvaqt aniqlash, shu orqali investitsiya samaradorligini barqaror ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi.
2. Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Микроэкономика. – СПб., 1994. – 448 стр.
3. Смит А. Исследование о природе причинах богатства народов. – М.; 1962. С. 342.
4. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с англ.-М.: Инфра-М, 2000. – С. 979.
5. Михайлова Е.В. Финансовые рынки и их формирование в СССР. — СПб.: СПУЭИФ, 1991. С.7.
6. Марголин. А.М. Инвестиции. — М.: РАГС, 2006. С. 464.
7. G'ozibekov D.G., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: Matbuotchi, 1993. B. 6.



8. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. B. 29.
9. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik –T.: Sharq, 2005.
10. Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003. B.79.
11. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (darslik). - T.: Fan, 2005. 241 b.
12. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>